



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI





No7
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA **MAKTAB TA'LIMI**

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 480 sahifa,
1-iyul, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Umarova H. O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor

G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)

Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston

Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari

Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Umarova H. O'. – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Rector of the Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G' B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Konvergent tahririyat mas'uliyati: Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonini yoritish tendensiyalari	16
Doniyorov Salim Musurmonovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy bilimlarini shakllantirish.....	23
Nazarov Odil Omanqulovich	
"Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"da ijtimoiy-pedagogik hamkorlikning o'rni	27
Abirova Umida Nazarovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarini oldini olish va uning ahamiyati.....	30
Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li	
Pedagogik jarayonda axloqiy qarashlarni shakllantirish usul va vositalari	34
Xudoykulova Shaxlo Mamaniyozovna	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining ijodkorligini rivojlantirishda ta'limiy o'yinlarning ahamiyati	38
Salimova Dilmira Farxodovna	
Aholining iqtisodiy axborot savodxonligini oshirishdagi muammo va kamchiliklar	41
Rajabov Asliddin Xolmirzayevich	
Favqulodda vaziyatlar yo'nalishi ta'limida muloqotning ahamiyati.....	44
Boltayev Baxtiyor Yunusovich	
Biologiya ta'limi va raqamli texnologiyalar	48
E. Po'latova	
Boshlang'ich ta'limga tayyorlov guruhi bolalarini kasbga yo'naltirishda stem yondashuvining ahamiyati ...	51
Egamova Ravshanoy Surobjonovna	
O'zbekiston TIMSS natijalarini qanday yaxshilashi mumkin? Innovatsion ta'lim yondashuvlari va samarali strategiyalar.....	55
G'ayniddinov Shayxislom Tolibjon o'g'li	
Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda mutaxassislar hamkorligi	60
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Developing Student's Critical Skills Through Technology-Enhanced English Lessons	63
Mavlonova Dildora Shuxrat qizi	
Bahrom Ro'zimuhammad she'rlarini o'qitishda integratsiya usulidan foydalanish	67
Nomozova Dilobar Suyun qizi	
Aksiologik yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini shakllantirish: bosqichlar va tamoyillar	72
Norboyeva Moxigul Shavkat qizi	
3D Modeling of Virtual Chemical Laboratories	75
Qayumov Jamshid Ma'rufjon o'g'li	
Fostering Metacognitive Skills in Efl Learners Through Ai-Supported Instruction: a Review of Recent Literature	80
Ruzieva Maftuna	
Onlayn va gibrid ta'lim sharoitida mashinasozlik texnologiyasi faniga qiziqishni oshirishning nazariy asoslari.....	85
Sarimsakova Soxibaxon Raxmonjanovna	
Loyihalashtirilgan integral darslar samaradorligi (9-sinflar uchun "Metallar va ularning umumiy xususiyatlari" mavzusida).....	88
Sharipova Hakima Shavkatovna	
Metacognition and Self-Regulated Learning	92
Turayeva Nazira Ibragimovna	
Методические возможности совершенствования обучения научной письменной речи на основе коммуникативно-деятельностного подхода	95
Меденцева Наталья Петровна	
Transformatsion jarayonlarda tibbiyot oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari	100
Jonibekov Jasur Jonibekovich	



O'zbek milliy musiqasi: boy madaniyat va san'atning ajralmas qismi.....	105
Rustamova Maxsuma Farxodbek qizi	
Sharq va G'arbda tibbiyot fanlarining yaratilishi tarixi.....	108
Bakayev Najmiddin	
Didaktik o'yinlar bola faoliyatining asosiy vositasi sifatida.....	112
Egamova Madina Qobil qizi	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarining konvergent-kreativ tafakkurini takomillashtirishning didaktik asoslari.....	116
Egamova Shukriya Amanovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida universal ta'lim faoliyatlari orqali tarbiyaviy maqsadlarga erishish imkoniyatlari	119
G'aybullayeva Nafisaxon Nosirjon qizi	
Matematika o'qitishning klassik metodlaridan zamonaviy usullariga o'tish	124
G'ofurov Jamoliddin Xusniddinovich	
Jahon miqyosida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari	128
Hoshimova Dilnoza Boymirzoyevna, Mahmudova Zulfiya Homidovna	
Bo'lajak o'qituvchilarning prognostik kompetensiyasini rivojlantirish tamoyillari.....	131
Ikromova Munisa Sheraliyevna	
Bo'lajak muhandislarni kasbiy tayyorgarligini grafik ma'lumotlar asosida oshirishning didaktik asoslari	134
Jumanazarova Zuhra Qosimjonovna	
Sport va jismoniy tarbiya pedagogikasida innovatsion metodlar	138
Jumanova Iroda Shokirjon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish	141
Jumayeva Sarvinoz Ilhombekovna	
Talabalarda nutqiy tarkibiy tuzilmalarni shakllantirish texnologiyasi	145
Kiyamova Maxbuba Sultanovna	
Innovatsion yondoshuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning amaliy jihatlari	148
Mamadiyurov Jamol	
Ingliz tili matnlarini o'rganishda 6-sinf o'quvchilarining grammatik kompetensiyasini oshirish va tatbiq qilishning samarali usullari.....	152
Sharipova Firuza Mehriddinovna	
Kar va zaif eshituvchi yuqori sinf o'quvchilarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish modeli	155
Tursunov Hojiakbar Hamidullo o'g'li	
Maktabgacha ta'limda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – pedagogik muammo sifatida.....	159
Xallokova Maksudaxon Ergashevna	
Altruistik xulq-atvorning shaxsiy va ijtimoiy determinantlari.....	162
Xatamova Ferangiz Ibodulloevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik mahoratini teatr pedagogikasi vositalari orqali rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi	166
Xudoyberganova Matluba Qulsoxatovna	
Refleksiv yondashuvning ta'lim jarayonidagi o'rni va afzalliklari.....	170
Yodgorova Gulrux Farhodovna	
Совершенство методики формирования компетентности будущих студентов-искусствоведов в условиях цифрового образования.....	174
Юлдашев Эргаш Сабинович	
O'z-o'zini rivojlantirish tushunchasi va uning pedagogik mohiyati.....	177
Kudenov Temurbek Maxsetbaevich	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida hikoya janrini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish dolzarb muammo sifatida	180
Ergasheva Shoxida Nurmuxammadovna	
Ingliz tili darslarini interaktiv tashkil etishda raqamli ta'lim vositalarining o'rni va metodik yondashuvlar	185
Raxmatullayeva Barno Baxtiyor qizi	
The Effectiveness of Using Podcasts to Enhance Listening Comprehension and Vocabulary Acquisition in Secondary School English Classes.....	189
Meliboyev Zuxriddin Isroil ugli	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	<p>O'zbekiston tarixi darslarida pedagogik improvizatsiyani texnologiyalashtirish va raqamlashtirish imkoniyatlari 192 Ergasheva Muhayyoxon G'anijonovna</p> <p>Tasviriy faoliyat vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning samaradorligi..... 196 Arslanova Umidaxon Komiljon qizi</p> <p>Baxtli pedagoglar sirlari yoki kasbdagi subyektiv farovonlik 201 Adilova Zulfiya Djavdatovna</p> <p>Ayollarning siyosiy faolligini oshirishda gender kvotalarining o'rni 204 Abdukaxorova O'g'iloy Isroiljon qizi</p> <p>The Content of Developing Students' Communicative Culture Through a Bilingual Approach 207 Abdukhalilova Feruzakhon Ulugbek kizi</p> <p>Maktabgacha yoshdagi nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar so'zlashuv nutqini shakllantirishda o'yin texnologiyalaridan foydalanish ahamiyati..... 210 Abdullayeva Ugiloy Djurayevna</p> <p>Chet tili intellektual va kasbiy rivojlanish kaliti 214 Aripova Sayida Abdulaxatovna</p> <p>Raqamli etiket: zamonaviy ta'limda yangi madaniyat talabi 217 Rasuljon Atamuratov</p> <p>Raqamli xiyonat: zamonaviy munosabatlar va sodiqlik inqirozi..... 221 Azizova Shodiya Utkur qizi</p> <p>Badiiy tarjimada leksik birliklarning lingvomadaniy aspektlari 224 Mardiyeva Maxbuba Shavkatovna</p> <p>O'quvchilarda funksional savodxonlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturiy platformani pedagogik loyihalash..... 228 Obloqulov Sulaymon Maxmayusuf o'g'li</p> <p>Kurashchilar orasida jarohatlarning oldini olish: rehabilitatsiya va profilaktik uslublar 232 Ochilova Sarvinoz Salim qizi</p> <p>Xalq og'zaki ijodi vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishga tayyorlashning pedagogik-psixologik jihatlari 236 Oxunova Nozimaxon Mirzag'ulom qizi</p> <p>Loyiha asosidagi o'qitish orqali yoshlarda liderlik qobiliyatini rivojlantirish usullari..... 239 Risvayeva Charos Zaydilla qizi</p> <p>Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'yinlar vositasida o'rgatishga qaratilgan mashq va topshiriqlarning samaradorligi 242 Toshniyozova Dildora, Meliyeva Nargizaxon</p> <p>Bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirish modeli 245 Tursunova Dilnoza Adhamjon qizi</p> <p>Shaxs rivojlanishida pedagogika va psixologiyaning o'rni 248 Umirova Guldon Jamoliddin qizi</p> <p>Toshkent shahri havosi ifloslanishining sabablari va oldini olish choralari 251 Ungalov Akmal Navruzovich</p> <p>Sun'iy intellekt asosida tuzilgan interaktiv platformalar va ulardan foydalanuvchi tajribasi 254 Xabirova Zulfiya Anvarbekovna</p> <p>Talabalar ijtimoiy faollik indeksini rivojlantirishda tyutorlik faoliyatining o'rni va ahamiyati 257 Xamrakulov Jasurbek Muxammadjon o'g'li</p> <p>Hozirgi davr pedagogikasida sharqona ta'limning ahamiyati..... 260 Yuldasheva Mastura Islamovna</p> <p>Пословицы и поговорки как отражение картины мира 263 Алламбергенова Шахноза Садатдиновна</p> <p>Raqamlashtirish sharoitida talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlantirishda mustaqil ta'limning o'rni 268 Abdumannopov Muhammadsahib Muhammadyusuf o'g'li</p> <p>Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy-kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlar..... 272 Khadicha Mukhamadiyeva Karomatovna</p>
-------------------------------------	---



Zamonaviy didaktik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning analitik va ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirish.....	277
Mo'minova Gulhayo Turg'unboy qizi	
Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari	280
O'rinova Nilufar Muhammadovna	
Aholi o'rtasida yoshlarning pedagogik intervensiyalar orqali ilmiy faolligini oshirish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish metodikasi.....	286
Raximov Xasanboy Kamoliddin o'g'li	
Buyuk ipak yo'li – yangi geosiyosiy va iqtisodiy aloqalarning tarixiy asosi sifatida.....	290
Tugalova Madina Erkin qizi	
Ilk maktabgacha yoshdagi bolalarda sensor tarbiya.....	293
Umarova Muyassarxon A'zamjonovna	
Rus tilida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari	297
Xanova Dilrabo	
Didactic Possibilities of Teaching English in Primary Schools Based on 3D Interactive Technologies	303
Kholiqova Lutfiya Umurzoqovna	
Raqamli dasturiy vositalari asosida organik kimyo fanini o'qitish jarayonlarini loyihalashtirish modeli	306
Ametova Guljamilya Elbrusovna	
Talabalarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning amaliy asoslarini takomillashtirish	310
Baydjanov Bekzod Xaitboyevich	
Aksiologik yondashuv asosida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishning til o'rganish jarayonidagi ahamiyati.....	314
Choriyeva Feruza Amrullayevna	
Ibrayim Yusupovning "Saksovul" she'rini o'qitish metodikasi	317
Darmenov Allayar Abdilxaq uli	
Innovatsion ta'lim sharoitida talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi....	320
Ergasheva Anbar Shaymardan qizi	
Oiladagi zo'ravonlik: sabablari, oqibatlari va psixologik yondashuvlar	324
Jo'rayeva Kaniza Akbarali qizi	
Darsda talabalar nutqiy qobiliyatini shakllantirish masalalari.....	329
Kamoliddinova Maftuna Xusniddin qizi	
Nodavlat ta'lim tashkilotlari o'quvchilarida kreativlikni shakllantirishni boshqarish	334
Nasriddinov Xasan Baxtiyor o'g'li	
Nutq nuqsoniga ega bolalarni maktabga tayyorlashda psixologik aspektlar va pedagogik yondashuvlar ...	339
Normatova Maftuna Kengash qizi, Kamolova Gulshoda Jobir qizi	
Talabalarni ma'naviy tarbiyalash diagnostikasining psixologik va pedagogik manbalardagi talqini	346
Saotmuratova Zebo Yuldash qizi	
OTM talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlari.....	350
Tokumbetova Mexribonu Shavkat qizi	
Ma'naviy yetuklik sari: jadid adabiyotining o'rni.....	356
Abdullayev Ro'zimuxammad Akramjon o'g'li	
Nemis tilida derivatsion leksik birliklarning o'qitishning lingvodidaktik asoslari	361
Abduraxmanov Sirojiddin Muminkulovich	
Bo'lajak o'qituvchilarda baholash madaniyatini shakllantirish: adolatli, obyektiv va motivatsiyalovchi baholashga tayyorlash	365
Boymirzayev Farxodjon Raxmatjon o'g'li	
Maktab ta'limida ko'paytirishning qulay usullari.....	371
Ergasheva Shahlo Shoabdullo qizi	
Sensor integratsiya buzilishlari bolaning nutq, harakat va hissiy rivojlanishiga ta'siri	375
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Inson jamiyatdagi ish faoliyatida va psixologiyasida sportning o'rni.....	378
Isoqov Nuriddin Halim o'g'li	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini integrativ o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish	382
Jo'rayeva Nargiza Jamolidinovna	
Обучение дошкольников иностранному языку в различных видах неречевой деятельности	386
Марасулова Доно Нигматуллаевна	

Til o'rgatishda matnning didaktik va kommunikativ ahamiyati	389
Ungarbayeva Ayman Davletbayevna	
Munavvarqori Abdurashidxonov – jadidchilik harakatining ma'rifatparvar yo'lboshchisi	393
Xasanboyeva Ruxshona Nurmatjon qizi	
Dars jarayonida o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini shakllantirish	396
Yulchiyeva Shoxsanam	
Особенности использования современных педагогических технологий в преподавании естественных наук в общеобразовательной школе	399
Мажидова Мадина Фархадовна, Мажидов Шерзод Фархадович	
Повышение информационной грамотности и формирование информационной культуры студентов в среде дистанционного обучения.....	403
Р. К. Аюезова	
Воздействие медиа в контексте социального формирования личности.....	407
Хайдарова Гулинур Нурбек кизи	
Теоретические основы развития интеллектуальных способностей студентов	411
Чинкулова Гулмехра Бахроновна	
O'qituvchining o'z darsini tahlil qilishi: tajriba va amaliyot	417
Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li	
Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini rivojlantirishda ma'naviy-axloqiy tadbirlarning o'rni	423
G'aybullayeva Sabohat Ulug'bek qizi, Karshiyev Jaxongir Abdirayimovich	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining adabiy kompetensiyalarini rivojlantirishda matn ustida ishlashning ahamiyati.....	426
Islomova Xafiza Azamatovna	
O'quvchilarda estetik qobiliyatlarni shakllantirishda xalq og'zaki ijodining tarbiyaviy-metodik salohiyati	430
Kaxarova Gulnora Sa'dullayevna	
Boshqaruv kompetentligi tushunchasining pedagogik psixologik va menejment sohalaridagi ilmiy asoslari va evolyutsiyasi.....	434
Mamatqulova Kimyoxon Abdujalilovna	
Muhandislik ta'limida zamonaviy kompyuter grafikasi vositalari yordamida talabalarning konstruktorlik faoliyatini rivojlantirish.....	438
Muxitdinov Abdurahob Abduvalievich	
Turizm sohasiga oid terminlarni o'qitishda axborot texnologiyasi orqali takomillashtirish	442
Nishanova Hafiza Vafiqulovna	
Ilmiy maqola yozish kompetensiyasini rivojlantirishda statistik metodlarni integratsiyalashning ta'limiy samaradorligi	446
Rahimova Indira Quddat qizi	
Sotsiologiyaviy tushunchalari va konsepsiyalari	451
Rustamova Mohimbonu Maxammadjon qizi	
Pedagogik mahoratni baholashda O'zbekiston va Kanada tajribasining qiyosiy tahlili	455
Tursinova Zoxida Sharabidinovna	
Basketbolning insonning jismoniy va kognitiv rivojlanishiga ta'siri: ilmiy tahlil.....	463
Umarjanov Alimardon Alisher o'g'li	
Talaba qizlar psixik salomatligi xususiyati deviant xulq-atvorni keltirib chiqaruvchi omil sifatida.....	466
Xasanova Mashxura Abduvalievna	
Ta'lim jarayonida o'yinlardan samarali foydalanish texnologiyasi.....	471
Ortiqova Yulduz Akram qizi	
Innovatsion ta'lim muhitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik mahoratini teatr pedagogikasi vositalari orqali rivojlantirish	475
Xudoyberganova Matluba Qulsoxatovna	



O'QITUVCHINING O'Z DARSINI TAHLIL QILISHI: TAJRIBA VA AMALIYOT

Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li
 Andijon davlat universiteti
 Kompyuter injiniringi kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'qituvchining pedagogik faoliyati, darsning ta'limni tashkil etishdagi asosiy shakl ekani, o'z-o'zini tahlil qilish orqali o'qituvchining faoliyat samaradorligini oshirish yo'llari hamda o'qituvchi tomonidan darsni tahlil qilishning "to'liq" shakli haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, darsning mohiyati, undagi uslubiy va texnologik yondashuvlar pedagogik nuqtai nazardan ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: o'qituvchi, pedagogik faoliyat, o'quvchi, dars, o'qitish vositalari, metod, uslub, didaktika, pedagogik mahorat, pedagogik texnologiya, o'z-o'zini tahlil qilish.

Abstract: This article examines the pedagogical activity of the teacher, the lesson as the main form of organizing the educational process, and self-analysis as a means of improving the effectiveness of the teacher's professional activity. Particular attention is given to the content, methodological, and technological aspects of the lesson, as well as to the characteristics of the "complete" form of lesson analysis carried out by the teacher.

Key words: teacher, pedagogical activity, student, lesson, teaching aids, method, style, didactics, pedagogical skill, pedagogical technology, self-analysis.

Аннотация: В данной статье рассматриваются педагогическая деятельность учителя, урок как основная форма организации учебного процесса, а также самоанализ как средство повышения эффективности профессиональной деятельности преподавателя. Особое внимание уделяется вопросам содержания, методических и технологических аспектов урока, а также характеристике "полной" формы анализа собственного урока учителем.

Ключевые слова: учитель, педагогическая деятельность, ученик, урок, средства обучения, метод, стиль, дидактика, педагогическое мастерство, педагогическая технология, самоанализ.

KIRISH

Dars – ta'lim jarayonining mantiqan to'liq va ajralmas qismi hisoblanadi. U o'zaro murakkab ta'sirga ega bo'lgan ta'lim jarayonining asosiy elementlarini o'z ichiga oladi: maqsadlar, vazifalar, mazmun, usullar, shakllar, o'qituvchi va talabani o'zaro bog'liq faoliyati. Shu bilan birga, "dars – o'qitishni tashkil etishning o'zgarimas shakli emas. O'quv amaliyoti va pedagogik tafakkur doimo darsni takomillashtirish yo'llarini izlaydi" ^[1]. Dars, bir tomondan, o'qitishning psixologik-pedagogik tamoyillariga, ikkinchi tomondan, ta'lim standartlariga asoslangan o'qituvchi ijodkorligining ifodasidir.

Ta'limning maqsadi va mazmuni o'zgarib boradi, o'qitishning yangi metodlari, vositalari hamda texnologiyalari yuzaga keladi, biroq dars hanuzgacha ta'limning asosiy shakli bo'lib qolmoqda. "O'qituvchi umri davomida o'rtacha 25 mingdan ortiq dars beradi, o'quvchi esa 10 mingdan ortiq darsda ishtirok etadi. O'quvchi uchun eng muhim bo'lgan hamma narsa aynan sinfda sodir bo'ladi" ^[2].

Darsning oqilona tuzilishi quyidagi omillar bilan ta'minlanadi:

- ta'lim, tarbiya va rivojlanish vazifalarini kompleks rejalashtirish;
- dars mazmuni va mavzusidagi asosiy, muhim aspektlarni ajratib ko'rsatish;
- takrorlash, yangi ma'lumotlarni o'rganish, uy vazifalarini mustahkamlash uchun material va vaqtning tegishli ketma-ketligini hamda miqdorini aniqlash;
- ratsional usullar, uslublar va o'qitish vositalarini tanlash;
- o'quvchilarga tabaqalashtirilgan va individual yondashuvni qo'llash;

- ta'lim olish uchun zarur o'quv va moddiy sharoitlarni yaratish;
- o'quvchilarning kognitiv faolligini ta'minlash ^[3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ma'lumki, o'qituvchi o'z faoliyatini, avvalo, faoliyatining asosi bo'lgan o'quv mashg'ulotlarini muntazam ravishda tahlil qilib borishi lozim. Har bir o'qituvchi o'z darsidan qoniqsa, o'quvchilar ham berilayotgan bilimdan qoniqish hosil qilayotganini his etadi. "O'qituvchi tomonidan o'z darsini tahlil qilish – o'tayotgan darsning tarkibiy qismlariga, uning mohiyati va vazifalariga chuqur kirib borish, o'z faoliyatining yakunini ko'ra bilish, erishilgan natijalarni o'quvchilarning muvaffaqiyati va rivojlanish darajasi bilan taqqoslash orqali o'z-o'zini baholashdir" ^[4].

Demak, o'z-o'zini tahlil qilish – bu insonning o'zini o'rganishi, ichki dunyosini bilishga intilishi, ruhiy holatining chuqur qatlamlarini anglashga bo'lgan urinishidir. O'zgalarni yaxshiroq tushunish uchun, eng avvalo, inson o'zligini bilishi, o'z motivlari, qarashlari, his-tuyg'ulari va tashqi voqelikka munosabatini anglashi zarur.

"Odatda o'z-o'zini tahlil qilish yoki o'z-o'zini tekshirish deb ataladigan jarayon mulohaza yoki introspektsiyaga o'xshaydi, chunki har ikki holatda ham subyektning fikri o'ziga qaratilgan bo'ladi. Biroq bu jarayonlar hech qachon o'z-o'zini anglashning obyektiv usuliga aylanmaydi, chunki inson fikrlari doimo boshqa fikrlar va munosabatlar bilan uyg'unlashgan bo'ladi" ^[5].

O'quv jarayonining muvaffaqiyati, sur'ati va rivojlanish yo'nalishi ko'p jihatdan o'qituvchining o'quv faoliyatini to'g'ri tashkil etishiga, taqdim etilayotgan axborotning o'quvchi tomonidan tushunarli qabul qilinishi, uni qayta ishlashi va kundalik hayotda amaliy qo'llay olishiga bog'liq.

O'qituvchining o'z darsini tahlil qilishiga quyidagi talablar mavjud:

- mavzudan kelib chiqib, maqsad va vazifalarni to'g'ri belgilash;
- didaktik, psixologik, metodik hamda huquqiy-me'yoriy talablarni bilish;
- darsni tahlil qilish uchun zarur ko'rsatkich va pozitsiyalarni ajratib baholash qobiliyatiga ega bo'lish;
- o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish;
- dars rejasining asoslanganligi, uning turi, tuzilishi, mazmuni, usuli va vositalari;
- sinfdagi bajariladigan topshiriqlarni psixologik-pedagogik jihatdan baholay olish;
- darsning turli bosqichlarida o'quvchilarning mustaqil fikrlash darajasini baholash;
- rejalashtirilgan vazifalarning bajarilishini aniqlash;
- darsdagi harakat va faktlarning pedagogik maqsadlarga muvofiqligini tahlil qilish;
- dars bosqichlari o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni aniqlash va baholash;
- darsdan (yoki uning alohida bosqichlaridan) qoniqish darajasi;
- aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilash ^[6].

Zamonaviy dars, eng avvalo, o'quvchi shaxsini har tomonlama kamol toptirish, uning faol aqliy o'sishi, chuqur va mazmunli bilimlarni egallashi, axloqiy tamoyillarni shakllantirish uchun barcha mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanishga yo'naltirilgan. Dars samaradorligini oshirishning ayrim muhim jihatlari quyidagilardan iborat:

- o'quv jarayonini optimallashtirish (o'quvchilarning individual xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta'lim bosqichlarida samarali variantni tanlash);
- o'quvchilarning kognitiv qiziqishlarini rag'batlantirish;
- faollashtiruvchi metodlar va ta'lim vositalaridan foydalanish;
- tezkor qayta aloqani yo'lga qo'yish;
- o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlikka asoslangan sog'lom psixologik muhitni shakllantirish.

O'qituvchining o'z darsini tahlil qilishining quyidagi shakllari mavjud:

1. To'liq shakl – dars jarayonini tashkil etish sifati, metodik yondashuvlar va o'qituvchilik tajribasini har tomonlama tahlil qilishga yo'naltiriladi (o'quv yili davomida 1 yoki, eng ko'pida, 2 marta).
2. Qisqa shakl – alohida mavzu doirasida qo'yilgan maqsad va erishilgan natijalarni o'zaro bog'liqlikda tahlil etishni nazarda tutadi (har chorakda 1 marta).
3. Aspektli shakl – darsda qo'llangan yoki rejalashtirilgan yondashuv (metod)ning samaradorligini chuqur tahlil qilishga qaratiladi (zaruratga qarab) ^[7].



Quyida o'z darsini tahlil qilishning "to'liq" shakli uchun namuna keltiriladi (mualliflik yondashuvi asosida):

1-jadval: O'qituvchining o'z darsini o'zi tahlil varaqasi

1. Darsni rejalashtirishda qanday talabalarni inobatga oldim?	<input type="checkbox"/> dasturga muvofiqligi, amaliy va nazariy materialning nisbati <input type="checkbox"/> dars bosqichlari orasidagi " mantiqiy bog'lanish " mavjudligi <input type="checkbox"/> o'tilgan mavzu bilan bog'liqligi <input type="checkbox"/> keyingi dars uchun yo'naltiruvchi xususiyatga egaligi <input type="checkbox"/> darsning o'qitish usullari, ta'lim tamoyillarini tanlashga qo'yiladigan talablarga mosligi <input type="checkbox"/> dars davomida o'qituvchi faoliyatining turlari va uni qay nisbatda (nutq faoliyati, tinglash, yozish, o'quvchilarga yordam berish, sinfni boshqarish va b..) amalga oshirilganini inobatga olish <input type="checkbox"/> dars bosqichlariga ko'ra vaqtni taqsimlashning maqsadga muvofiqligi <input type="checkbox"/> o'quvchilarning tartib va ongli intizomga rioya etishini inobatga olish
2. Yangi mavzuni bayon etishda nimalarga ahamiyat berdim va qanday o'qitish usullari kombinatsiyasidan foydalandim?	<input type="checkbox"/> yangi tushunchalarni shakllantirish (mavzu bo'yicha yangi tushunchalar aniqlaganligi, bu tushunchalar o'quvchilar uchun haqiqatdan ham yangilikmi) <input type="checkbox"/> munozarali vaziyatni hosil qilish (o'qituvchi yangi mavzu bo'yicha turli nuqtai nazarlar bilan qanday ishladi) <input type="checkbox"/> yangi materialni sifatli o'zlashtirilishi <input type="checkbox"/> o'qituvchining pedagogik texnikasi: nutq tezligi, diksiya, bayonning emotsionalligi, maxsus atamalardan foydalanishning to'g'riligi, shaxslararo muloqot ko'nikmalari, o'quvchilarga ta'sir etish usullari <input type="checkbox"/> dars mazmunining hayot bilan bog'lanishi, materialning kasbiy yo'nalishi <input type="checkbox"/> ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun texnik vositalar, ko'rgazmali qurollardan foydalanish
3. Darsning psixologik jihatlarini inobatga oldimmi?	<input type="checkbox"/> o'quvchilarning dars boshlanishidan oldingi va davomidagi psixologik holati (darsga tayyorgarligi, yaxshi kayfiyat, tushkunlik va uning sabablari, darsda bo'layotgan voqealarga emotsional munosabat) <input type="checkbox"/> darsning turli bosqichlarida diqqatni jalb qilish, uning barqarorligini saqlash usullari, chalg'ish holatlari, uning sabablari, ixtiyoriy va ixtiyorsiz diqqat nisbati <input type="checkbox"/> dars davomida xotiraning rivojlanishiga qanday hissa qo'shildi, asosiy xotira jarayonlarini tashkil etish: idrok etish, yodlash va saqlash <input type="checkbox"/> tafakkurni rivojlantirish: muammoli vaziyatlar yaratish, aqliy operatsiyani tashkil etuvchi topshiriqlardan foydalanish (taqqoslash, tahlil qilish, umumlashtirish, aniqlashtirish, tizimlashtirish, mavhumlashtirish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun sharoit yaratish) <input type="checkbox"/> materialni obrazli ko'rsatish <input type="checkbox"/> materialni mazmunli idrok etishni tashkil etish texnikasi
4. Yangi mavzuni qay darajada mustahkamlay oldim?	<input type="checkbox"/> tanlangan metod, mashq (masala, topshiriq)lar mavzudagi asosiy tushunchalarni o'zlashtirishga yordam bergani <input type="checkbox"/> topshiriqlarni bajarishda o'quvchilarga tabaqalashtirilgan yordam ko'rsatilishi <input type="checkbox"/> ilg'or o'quvchilar uchun qo'shimcha topshiriqlar berilishi <input type="checkbox"/> o'zlashtirishi past o'quvchilarga Fidbek uyuushtirish <input type="checkbox"/> mavzuni mustahkamlashda texnik vositalar, ko'rgazmali qurollardan foydalanish



5. Darsda o'quvchilar faoliyatiga qay darajada e'tibor qaratdim?	<input type="checkbox"/> o'quvchilarning o'z-o'zini nazorat qilishi <input type="checkbox"/> kuzatildi <input type="checkbox"/> kuzatilmadi <input type="checkbox"/> mustaqil fikr yurita olish <input type="checkbox"/> shaxslararo munosabatlar madaniyati <input type="checkbox"/> o'quvchilarning darsga qiziqishi: <input type="checkbox"/> yuqori <input type="checkbox"/> o'rta <input type="checkbox"/> past
6. O'quvchilar bilimini qanday baholadim?	<input type="checkbox"/> shaffoflik, obyektivlik va mezon talablariga mos <input type="checkbox"/> bilimlarni baholashda: <input type="checkbox"/> kompyuter (dastur) imkoniyatidan foydalanildi <input type="checkbox"/> rag'bat kartochkalaridan foydalanildi <input type="checkbox"/> o'z pozitsiyasiga asoslandi <input type="checkbox"/> o'quvchilarning o'zaro baholashlari inobatga olindi
7. Uy vazifa berish va uning bajarilishini to'g'ri nazoratga olamanmi?	<input type="checkbox"/> uy vazifasi va mustaqil ishlash topshiriqlari uchun ko'rsatmalar, o'quvchilarda ortiqcha yuklanishni oldini olish bo'yicha tavsiyalar berilishi <input type="checkbox"/> hajmi, murakkablik jihatdan optimalligi <input type="checkbox"/> bajarilgan uy vazifasining sharhlanishi <input type="checkbox"/> topshiriqlarni bajarilishida dizaynga e'tibor <input type="checkbox"/> uyga vazifaning farqlanishi (differensiatsiyaning mavjudligi) <input type="checkbox"/> telegram gruppasi yoki elektron pochta orqali uy vazifasi va topshiriqlar bajarilishini nazoratga olish
Belgilangan barcha vazifalarni to'liq bajarishga muvaffaq bo'ldimmi?	<input type="checkbox"/> ha <input type="checkbox"/> yo'q <input type="checkbox"/> bilmadim...
Qancha muddatda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni o'rini to'ldirishim mumkin?	<input type="checkbox"/> ko'pi bilan bir oy muddatda <input type="checkbox"/> ko'pi bilan bir haftada <input type="checkbox"/> bugun
Umuman olganda kasbiy uslubiy mahorat darajamni qanday baholayman?	<input type="checkbox"/> yuqori <input type="checkbox"/> o'rta <input type="checkbox"/> past
Faoliyatimni takomillashtirish istiqbollarini quyidagicha ifodalayman	<hr/> <hr/> <hr/>

Izoh: Ushbu tahlil varaqasi o'qituvchining o'z ustida ishlash papkasida saqlanadi. Zarur o'rinlarda o'quv yili oxiri va yangi o'quv yili boshlanishiga qadar erishilgan yutuq va yo'l qo'yilgan kamchiliklar sarhisob qilinishida muhim asos vazifasini o'taydi. Tahlil varaqasini yuritishda kerakli katakchaga belgi qo'yiladi va belgilangan bandlar umumlashtirib, o'z faoliyatiga tanqidiy, tahliliy xulosalar chiqariladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'qituvchining o'z darsini tahlil qilishi bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv va amaliy tahlillar natijalari bu faoliyatning o'qitish samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Xususan, Andijon shahri va tumanlaridagi umumta'lim maktablarida faoliyat yuritayotgan 30 nafar o'rta bo'g'in va yuqori sinf o'qituvchilari ishtirokida o'tkazilgan tajriba asosida dars tahlili varaqasidan foydalanish amaliyotga joriy etildi. Tadqiqot davomida o'qituvchilarga "to'liq" tahlil shakli asosida o'z darslarini rejalashtirish va baholash tavsiya etildi hamda har bir bosqichda tahlil natijalari qayd etib borildi.



Tajribaviy faoliyat natijalariga ko'ra, darsni tahlil qilish vositasidan muntazam foydalanadigan o'qituvchilarda quyidagi ijobiy o'zgarishlar kuzatildi:

- darsni rejalashtirishdagi mantiqiy izchillik va maqsadga yo'naltirilganlik 85 % hollarda yaxshilandi;
- o'quvchilarning faolligi, ya'ni mustaqil fikrlashi va darsdagi ishtirok darajasi 70 % gacha oshdi;
- baholashning adolatli va shaffof mezonlarga asoslanganligini ifodalovchi ko'rsatkichlar 60 % dan 90 % gacha ko'tarildi;
- darsdan so'ng o'tkazilgan o'z-o'zini baholash asosida o'qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirishga qaratilgan individual strategiyalar ishlab chiqishga intilishi kuzatildi.

Bundan tashqari, tahlil varaqasidan foydalanilgan darslarda o'quvchilar tomonidan topshiriqlarni bajarish sifati ortgani, ya'ni o'quv materialining chuqurroq o'zlashtirilgani holatlari 65 % dan 88 % gacha oshgani qayd etildi. Bunday ijobiy o'zgarishlar pedagogik jarayonda o'qituvchining ongli yondashuvi, didaktik vositalarni maqsadli tanlashi, shuningdek o'quvchilarning psixologik holatini inobatga olgan holda darsni olib borishi bilan izohlanadi.

Monitoring jarayonida o'qituvchilarning darsdan qoniqish darajasi ham tahlil qilindi. Tadqiqotda ishtirok etgan pedagoglarning 76 % i darsni tahlil qilish orqali o'z faoliyatidagi kamchiliklarni aniqroq ko'rganini va shu asosda takomillashtirish choralari belgilaganini ma'lum qilgan. Bu holat o'z-o'zini tahlil qilish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham o'qituvchining kasbiy o'sishiga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Yuqoridagi kuzatuv va statistik natijalar asosida xulosa qilish mumkinki, o'qituvchining darsni tahlil qilishi ta'lim jarayonining sifati oshirish, o'quvchilar bilimni chuqurlashtirish hamda o'qituvchining kasbiy rivojlanishini rag'batlantirishda muhim omil hisoblanadi.

O'qituvchining o'z darsini tahlil qilishi – bu nafaqat metodik refleksiya, balki kasbiy o'sishning zarur bosqichidir. Natijalar bo'limida keltirilgan empirik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, darslarni tizimli ravishda tahlil qilgan pedagoglar o'z amaliy faoliyatida sezilarli ijobiy o'zgarishlarga erishgan. Bu holat mavjud nazariy yondashuvlar bilan hamohang bo'lib, zamonaviy pedagogika fanida reflektiv faoliyatning samaradorligi haqidagi ilmiy qarashlarni tasdiqlaydi^[8]. Jumladan, E.M. Abdullayeva o'z tadqiqotida dars samaradorligini oshirishda o'qituvchining o'z faoliyatini ongli ravishda tahlil qilishi muhim determinantlardan biri ekanligini ta'kidlagan.

Dars tahlili vositasida o'qituvchining o'zini baholashi – ya'ni o'z kuchli va zaif jihatlarini tan olishi, faoliyatga tanqidiy nigoz bilan yondashishi – pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratadi. Bu jarayonni "metakognitiv refleksiya" deb talqin qilish mumkin, chunki o'qituvchi nafaqat amaliy jihatdan, balki bilimlarni qanday o'zlashtirayotgani, qanday metodlarni qo'llayotgani va ularning qaysi holatlarda samaradorlik ko'rsatishini anglaydi^[9]. Ushbu yondashuv psixologik-pedagogik nazariyalar doirasida konstruktivistik tamoyillar bilan mos keladi. Ya'ni, o'qituvchi o'zi yaratgan ta'lim muhitini tahlil qilish orqali o'quvchilarning bilim tizimini mustahkamlaydi.

Biroq darsni tahlil qilish amaliyoti barcha pedagoglar uchun birdek samarali kechmasligi mumkin. Tahlil varaqalaridan foydalanishda metodik savodxonlik darajasi, vaqt resurslari va psixologik tayyorgarlik kabi omillar muhim rol o'ynaydi. Ba'zi hollarda o'qituvchilar tomonidan o'z-o'zini baholash yuzaki, shablon asosida amalga oshirilishi mumkin. Bu esa reflektiv tahlilning mohiyatiga zid holatdir. Shuning uchun tahlil varaqasidan foydalanishdan oldin pedagoglarga metodik ko'nikmalar berilishi va tahlil mezonlari ustida ishlash zarurligi dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Xalqaro tajriba ham darsni tahlil qilishga asoslangan yondashuvlarning samaradorligini tasdiqlamoqda. Masalan, Yaponiya va Finlyandiyada o'qituvchilar darsdan so'ng tahlil seminarlari (Lesson Study) orqali o'z faoliyatini hamkasblar bilan birgalikda tahlil qiladi. Bunday yondashuv, bir tomondan, o'z-o'zini baholashga, ikkinchi tomondan esa tashqi fikrlar asosida amaliy o'zgarishlar kiritishga xizmat qiladi^[10]. Mazkur maqolada taqdim etilgan yondashuv ham ana shunday ilg'or tajribalarni mahalliy ta'lim tizimiga moslashtirishga qaratilgan amaliy urinish sifatida qaraladi.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchining darsni chuqur tahlil qilishi hamda tahlil natijalariga asoslangan tarzda o'z pedagogik faoliyatini takomillashtirishga intilishi dars samaradorligining oshishiga, o'quvchilarning bilim olish jarayonida faolligi va mustaqil fikrlash darajasining ortishiga olib keladi. Shu sababli, dars tahlilining to'liq, muntazam va tizimli shaklda olib borilishi zamonaviy ta'lim tizimida ustuvor vazifalardan biri bo'lishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda, har bir sog'lom fikrlaydigan va hissiy jihatdan yetuk inson o'z faoliyati hamda xatti-harakatlarini avtomatik ravishda tahlil qilib boradi. O'z-o'zini tahlil qilish rivojlanish, maqsadlarga erishish va hayot sifatini yaxshilash imkonini beradi. O'qituvchi (pedagog) o'z-o'zini tahlil qilishi orqali o'zini yaxshiroq tushunishga, fikr va his-tuyg'ularini tartibga solishga, kuchli hamda zaif tomonlarini aniqlashga erishadi. Quyida ushbu yo'nalishda ayrim xulosa va takliflar keltirib o'tiladi:

O'z-o'ziga savollar berish. O'z-o'zini tahlil qilishning muhim jihatlaridan biri – o'ylanishga, mulohaza yuritishga undovchi savollar berishdir. Bu jarayon fikr va his-tuyg'ularni jamlashga, shaxsiyatdagi yangi qirralarni kashf etishga xizmat qiladi.

Yutuq va kamchiliklarni obyektiv baholash. O'z-o'zini tahlil qilish jarayoni o'z yutuq va kamchiliklarini haqqoniy baholashni o'z ichiga olishi kerak. Muvaffaqiyatga erishishga ko'mak beruvchi kuch va imkoniyatlarni aniqlash, shuningdek, xato hamda kamchiliklarni tan olishdan cho'chimagan holda, boshqalarning fikr-mulohazalarini ham hisobga olish lozim.

Harakat rejasini ishlab chiqish. Maqsadlarga erishish yoki mavjud holatni yaxshilash uchun qanday o'zgarishlar kiritilishi zarurligini oldindan rejalashtirish kerak. Harakatlar rejasining mavjudligi – maqsadni aniq shakllantirish va unga bosqichma-bosqich erishishga xizmat qiladi.

Reflektiv kompetensiyalarni shakllantirish. O'z darslarini tahlil qilgan o'qituvchilarda reflektiv fikrlash, ya'ni o'z faoliyatiga tanqidiy va tahliliy yondashish ko'nikmalari shakllanadi. Bu holat nafaqat dars jarayonini takomillashtirish, balki kasbiy o'sish strategiyalarini belgilashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi o'z harakatlari, qaror qabul qilish jarayoni va metodik yondashuvlarini izchil tahlil qilgan holda ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi.

Samarali pedagogik muhit yaratish. Darsni tizimli tahlil qilish o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida ochiq, ishonchli va hamkorlikka asoslangan ta'lim muhitini shakllantiradi. O'qituvchining o'z faoliyatiga nisbatan mas'uliyatli yondashuvi o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi. Natijada dars jarayoni nafaqat bilim uzatish vositasi, balki shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish maydoniga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayeva E.M. Dars, uning turlari va tuzilishi. SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 – ISSUE 3 – 2021. ISSN: 2181-1601. – 846 b.
2. Современный урок – это прежде всего урок / <https://педпроект.рф/маканова-м-м-современный-урок>.
3. https://volgn.rnd.muzkult.ru/media/2021/02/15/1247619903/karta_analiza_uroka.doc
4. Корсакова В.К., Куликова М.Е., Шапаратов С.Р. Самоанализ или как понять себя? / Форум молодых ученых. 10/38, 2019. – Ст. 309.
5. Самоедство или конструктивный анализ себя? / <https://knife.media/reflection/>
6. G'aybullayeva M.X. Dars tahlili pedagogik mahoratni oshirishning vositasi sifatida // Scientific Progress. – 2022. – T. 3. – № 2. – B. 836–840.
7. G'aybullayeva M.X. Darslarni kuzatish va tahlil qilish // Iqtisodiyot va jamiyat. – 2023. – № 4. – B. 82–85.
8. Jurayev B.T., G'aybullayeva M.X. O'zaro darslarni tahlil qilish kasbiy mahoratni oshirishning vositasi sifatida // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. – 2022. – № 6. – B. 198–201.
9. Sarsembaeva R.M. O'quv mashg'ulotlarini tahlil qilish metodikasi // Современное образование (Uzbekistan). – 2016. – № 6. – B. 3–11.
10. Абдуллоева М.А., Убайдуллоева Ф.А. Анализ урока практиканта как средство повышения уровня его методической компетенции // Вестник педагогических наук. – 2021. – № 6. – С. 239–243.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.